

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**



«MATEMATIK TIZIMLAR»

MODULINING

O‘QUV–USLUBIY MAJMUASI

Toshkent – 2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchi: D.X. Nazirova, O‘ZMU amaliy matematika fakulteti katta o‘qituvchisi

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	<u>4</u>
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	<u>9</u>
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	<u>12</u>
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	<u>98</u>
VI. GLOSSARIY.....	<u>107</u>
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	<u>111</u>

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari va 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovski nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son, 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida

shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi:

- Matematik tizimlar fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kompyuterli matematik tizimlarning tarixi va hozirgi holati.
- Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish.
- Matematik tizimlarning grafik muhitida ishlash. Differetsiallashtirish, integrallashtirish, qatorlar, limitlarni hisoblash.
- Differensial tenglamalarni yechish funksiyalari. 1-, 2- va yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechish.
- Matematik tizimlar integratsiyasi. Ma’lumotlarni qayta ishlash. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlari haqida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- “Amaliy matematika” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- matematik paketlar yordamida yechimning aniqligini baholash;

- “Amaliy matematika” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- matematik paketlarning joriy holati va istiqboldagi vazifalarini;
- amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlarini;
- ilmiy tadqiqot yo‘nalishida foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar paketlarining imkoniyatlarini;
- tabiiy va aniq fanlarda foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini *bilishi* kerak.
- tabiiy va aniq fanlarini o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;
 - ilg‘or tajribalardan foydalanish;
 - matematik modellashtirish, sonli yechish usullar, matematik paketlar bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
 - pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi lozim.
- matematik paketlar fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
 - tabiiy va aniq fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash *malakalariga* ega bo‘lishi lozim.
- tabiiy va aniq fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
- matematik modellashtirish, sonli yechish usullar, matematik paketlar fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

-Ko‘chma mashg‘ulotlarda amaliy masalalarni kompyuterda matematik tizimlardan foydalanib yechish ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Matematik tizimlar” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Matematik modellashtirish asoslari”, “Sonli usullar”, “Chekli ayirmali sxemalar” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta‘lim jarayonida matematik tizimlardan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta‘lim jarayonida matematik tizimlardan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg‘ulo	Ko‘chma mashg‘ulo
1.	Matematik tizimlar fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kompyuterli matematik tizimlarning tarixi va hozirgi holati. MathCAD va Maple tizimi.	2	2		
2.	Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish. Simvolli hisoblashlar. Matematik ifodalar va funksiyalar. Algebra va sonlar nazariyasi masalalarini yechish. Tenglamalar sistemasi va tenglamalarni yechish. Matritsalar ustida amallar.	2	2		
3	Maple tizimida funksiya grafigini chizish. Funksiya grafigi parametrlarini sozlash. AnimatsiY. Differetsiallash, integrallash, qatorlar, limitlarni hisoblash.	2	2		
4	Differensial tenglamalarni yechish funksiyalari. 1-, 2- va yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechish. ODT uchun Koshi va aralash masalalarni yechish. Differensial tenglama yechimlari grafiklarini	2	2		

	chizish. Matematik tizimlar integratsiyasi. Ma'lumotlarni qayta ishlash. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlari.				
5	Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish. Algebra va sonlar nazariyasi masalalarini yechish.	2		2	
6	Matematik tizimlarda funksiya grafigini chizish. Animatsiy. Differetsiallashtirish, integrallashtirish, qatorlar, limitlarni hisoblash.	4		4	
7	Differensial tenglamalarni yechish. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlaridan foydalanib, dasturlar tuzish.	4		4	
	Jami:	18	8	10	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Matematik tizimlar fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kompyuterli matematik tizimlarning tarixi va hozirgi holati. (2 soat)

- 1.1. Matematik paketlarning joriy holati va istiqboldagi vazifalari.
- 1.2. Maple, Mathcad tizimlarining umumiy tavsifi, maqsad va vazifalari hamda imkoniyatlari.

2-mavzu: Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish. Simvolli hisoblashlar. (2 soat)

- 2.1. Matematik ifodalar va funksiyalar.
- 2.2. Algebra va sonlar nazariyasi masalalarini yechish.
- 2.3. Tenglamalar sistemasi va tenglamalarni yechish.
- 2.4. Matritsalar ustida amallar.

3-mavzu. Maple tizimida funksiya grafigini chizish. Funksiya grafigi parametrlarini sozlash. (2 soat)

- 3.1. Maple tizimida funksiya grafigini chizish.
- 3.2. Animatsiyali grafiklarni chizish.
- 3.3. Matematik tizimlarda differetsiallashtirish va integrallashtirish.
- 3.4. Matematik tizimlarda qatorlar, limitlarni hisoblash.

4-mavzu. Differensial tenglamalarni yechish funksiyalari. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlari. (2 soat)

- 4.1. Differensial tenglamalarni yechish funksiyalari. 1-, 2- va yuqori tartibli differensial tenglamalarni yechish.
- 4.2. ODT uchun Koshi va aralash masalalarni yechish. Differensial tenglama yechimlari grafiklarini chizish.
- 4.3. Matematik tizimlar integratsiyasi.
- 4.4. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish. Algebra va sonlar nazariyasi masalalarini yechish. (2 soat)

2-amaliy mashg‘ulot. Matematik tizimlarda funksiya grafigini chizish. Animatsiya. Differentsiallashtirish, integrallashtirish, qatorlar, limitlarni hisoblash. (4 soat)

3-amaliy mashg‘ulot. Differensial tenglamalarni yechish. Amaliy dasturlar paketida dasturlash elementlaridan foydalanib, dasturlar tuzish. (4 soat)

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va interfaol pedagogik (Aqliy xujum, Venn diagrammasi, konseptual jadval) usul va texnologiyalardan foydalaniladi;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blits-so‘rovlardan va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar

Namuna:

Kopyuterli matematik tizimlar			
MATHCAD		MAPLE	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:			

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ✓ o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- ✓ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

- ✓ ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MA'LUMOTLAR.

1-ma'ruza. Matematik tizimlar fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Kompyuterli matematik tizimlarning tarixi va hozirgi holati. MathCAD va Maple tizimi.

Reja:

1. Matematik paketlarning joriy holati va istiqboldagi vazifalari.
2. Maple, Mathcad tizimlarining umumiy tavsifi, maqsad va vazifalari hamda imkoniyatlari.

Tayanch so'zlar: matematik tizimlar, tenologiyalar, algoritmlar, amaliy dasturlar paketi, kompyuterli matematika, simvolli hisoblash, sonli hisoblash, interpretator, dastgohlar paneli, interfeys, axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Texnologiya grek tilidan (techne) tarjima qilganda san'at, mahorat, bilish ma'nolarini anglatadi, bular esa o'z navbatida jarayonlardir. Jarayonlar - bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ma'lum harakatlar majmuasidir[6]. Axborot texnologiya - obe'kt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsulot) holati haqida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun foydalanadigan ma'lumotlarni (birlamchi) yig'ish, ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullari majmuasidir.

Zamonaviy AKT muhitida matematik fanlarni o'qitish, matematik metodlarni amaliyotda qo'llash hozirgi paytda keng tarqalgan kompyuterli matematik tizimlar(MathCAD, Eureka, MatLAB, Maple, Mathematica)ning funksional imkoniyatlariga tayanadi. Ko'p funktsionallik matematik dasturiy ta'minotlardan foydalanish matematik ta'limotning amaliy aspektlarini joriy etishni kuchaytirib qolmasdan, balki mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini ko'taradi. Mutaxassisning matematik kompetentlik nuqtai nazaridan matematik masalalarni yechishda turli metodlarni qo'llash (aniq va taqribiy yechish usullari, natijalarni simvolli(analitik), sonli hamda grafikko'rinishda olish) va yechimni turli shaklda olish har xil turdagi instrumentlarning unikal variativ imkoniyatlarini tushinishga imkoniyat beradi. Bularning barchasi kasbiy ta'lim maqsadi uchun masala mohiyatini tushunish uslubiy muammo aktualigini oshiradi.

Kompyuterli matematik tizimlarda hisoblashlar prinsipial turli xil bo'lgan yondashuvlar amalga oshiriladi. An'anaviy sonli usullar yuqori yoki past tartibli

aniqliklarga ega bo'lgan turli algoritmlardan foydalanishga asoslangan. Ikkinchisi, bir necha marotaba murakkab bo'lgan simvulli yoki analitik hisoblashlarga asoslangan. Simvulli hisoblashlar absolyut aniq metodlar bo'lib (bunda yaxlitlash xatoligi yo'q), bunda kompyuterifoda ustida hozirgacha ma'lum va taniqli bo'lgan qoidalarga tayanadi. Biroq, juda kam sonidagi masallarning analitik yechimlari mavjud. Bu avvalambor asosida qat'iy formulalar, algoritmlar (differensiallash, integrallash, tenglama ildizlarini hisoblash, ko'paytuvchilarga ajratish, yelementar kasrlarga ajratish, qatorga yoyish yoki limitni hisoblash va boshqalar) yotgan masaladir.

Mazkur kursning maqsadi ham o'qituvchi talabaga nafaqat masalani sonli yoki analitik yechimini topish bilan balki matematik masalani yechish usulining aniqligi, korrektiligi va turg'unligiga ham e'tiborini qaratishni o'rgatishdan iborat.

Juda ko'plab odamlar matematik hisoblashlar bilan shug'ullanadi. Fanning biror bir sohasi yo'qki matematik hisoblashlar amalga oshirilmasin.

Dastlab ushbu hisoblashlar dastur yordamida boshqariladigan kalkulyatorlar yoki Beysik, Paskal kabi dasturlash tillarida ishlaydigan kompyuterlarda bajarilgan. Matematik hisoblashlarni osonlashtirish maqsadida mutaxassislar maxsus matematik kompyuter sistemalarini yaratishdi. Bunday sistemalar (amaliy dasturlar paketi) ga MathCAD, Eureka, MatLAB, Maple, Mathematica va h.k. lar misol bo'ladi. Mazkur kursda matematika yo'nalishlarida MathCAD, MatLAB va Maple matematik kompyuterli sistemalari, axborot xavfsizligi yo'nalishlarida esa MathCAD, MatLAB va Maple sistemalari o'rganiladi.

MathCAD o'zining soddaligi va universalligi bilan ajralib turadi. Mazkur sistema MathSoft, Inc. (<http://www.mathsoft.com/>) kompaniyasining mahsuloti (bahosi 818 dollar) bo'lib, foydalanuvchiga tenglamalarni kiritish, tahrirlash, yechish, natijalarni vizualizatsiya qilish, ularni hujjat shaklida rasmiylashtirish va natijalarni tahlil qilish maqsadida boshqa sistemalar bilan almashinish imkoniyatini beradi [3].

Dastlab sistema 1988 yilda matematik masalalarni sonli yechish maqsadida yaratilgan. Faqat 1994 yildan boshlab unga simvulli hisoblashlarni bajarish funksiyalari qo'shilgan. Bunda albatta Maple sistemasining simvulli hisoblashlaridan foydalanilgan.

1980 yilda Maple sistemasi Waterloo Maple Software, Inc. (<http://www.maplesoft.com/>) kompaniyasida (Waterloo universiteti Kanada) Keyt Gedd (Keith Geddes) va Gaston Gone (Gaston Gonnet) tomonidan tashkil yetgan olimlar jamoasi tomonidan yaratilgan (bahosi Maple 7 versiyasi -1695 dollar).

Dastlab sistema katta kompyuterlarda joriy qilingan va keyinchalik shaxsiy kompyuterlarda ishlatilgan. Mazkur sistema simvulli hisoblashlar sistemasi yoki kompyuterli algebra sistemasi deb ham atalishiga undagi simvulli hisoblashlar ancha takomillashtirilganligidan dalolat beradi. Maple ham sonli, ham simvulli hisoblashlarni amalga oshirish, formulalarni tahrirlash imkoniyati mavjud. Ochiq arxitektura, sodda va samarali interpretator tili Maple dagi kodlarni S tili kodiga almashtirish imkoniyatini beradi. Maple kuchli ilmiy grafik muharrirga ega [4].

MATLAB- MathWorks, Inc.(<http://www.mathwork.com/>) kompaniyasi mahsuloti bo'lib, yuqori darajadagi ilmiy-texnikaviy hisoblashlar uchun yuqori darajadagi tilni o'zida mujassamlashtirgan(2940 dollar).

MATLAB ning birinchi avlodi XIX asrning 70-yillirida Nyu-Meksika va Standford universitetlarida yaratilgan bo'lib, jadvallar (matrisa) nazariyasiga va chiziqli algebrani hisoblash uchun mo'ljallangan.

Bu davrda Paskal dasturlash tilida chiziqli algebrasiga bag'ishlangan Linpack va Eispack- amaliy dasturlar paketi faol rivojlangan va ishlab chiqilgan.

Xozirgi MATLAB tizimining imkonlari uning birinchi avlodidagi versiyasidan ko'ra ancha rivojlanib, muhandislik hamda ilmiy mo'ljallangan yuqori samarali algoritmik tilga aylangan. Matlab yordamida matematik hisoblash, ilmiy grafikani tasvirlash va maxsus operatsion tizimning muxitida dasturlash mumkin. Bunda barcha masalalar va ularning tavsiflanishi matematik tavsiflashga ham yaqin[1,2].

MATLAB ni quyidagi ko'pdan-ko'p sohalarda qo'llash mumkin:

matematika va hisoblash;

algoritmlar ishlab chiqishda;

hisoblash tajribasida, imitatsiyali modellashtirish, maketlar tuzish;

berilganlarni taxlillash, natijalarni o'rganish va tasvirlash;

ilmiy va muxandislik grafikasida;

foydalanuvchining xususiy muhiti bilan birgalikda amaliy dasturlarni yaratish.

MATLAB – bu interfaol tizimdir. MATLAB ning asosiy obekti – massiv (jadvalli kattalik). Bunda jadvalli kattalikning o'lchamlarini aniq ko'rsatishini talab qilinmaydi. Natijada yesa, ko'p turdagi vektorli matrisali hisoblash masalarini “S” yoki “Fortran” dasturlash tillarida yaratishdan ko'ra juda tez hosil qilinadi.

Matematika fanining vazifalaridan biri bu olim va muxandislararo aloqa tilidir. Matrisalar, differensial tenglamalar, berilganlar jadvallari, grafik chizmalar – bularning barchasi MATLAB da, hamda amaliy matematikada qo'llaniladigan obyekt va tuzilmalar. C, C++, Java va boshqa tillarda yozilgan proseduralar bilan integrasiyalash imkoniyati mavjud.

Mathematica sistemasi Wolfram Research, Inc. (<http://www.wolfram.com/>) kompaniyasi mahsuloti bo'lib, juda katta hajmdagi murakkab matematik algoritmlarni dasturga o'tkazuvchi vositalar majmuasiga ega (bahosi 1460 dollar). Texnika oliy o'quv yurtlaridagi oliy matematika kursidagi barcha algoritmlar sistema xotirasiga kiritilgan. Mathematica juda kuchli grafik paketga ega bo'lib, murakkab ko'rinishdagi bir, ikki o'lchovli funksiyalarning grafiklarini chizish mumkin. Mazkur sistemadan ba'zi (masalan AQSH) mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarikeng foydalaniladi.

MathCAD (Mathematical Computer Aided Design) bu matematikaning turli sohalaridagi masalalarini yechishga mo'ljallangan ajoyib sistemadir. Dasturning nomlanishi ikkita so'zdan iborat bo'lib – MATHematisa (matematika) va CAD (avtomatik loyihalash sistemasi).

MathCAD ni o'rganish juda oson bo'lib, uni ishlatish soddadir. Ushbu dasturni boshqarish Windows muhitida oldin ishlaganlar uchun intuitiv tushinarlidir. MathCAD ni juda ko'p sohalarda sodda hisoblashlarni hisoblashdan tortib to elektrik sxemalarni qurishgacha ishlatish mumkin.

MathCAD formula, sonlar, matnlar va grafiklar bilan ishlaydigan universal sistemadir. MathCAD tili matematika tiliga juda ham yaqindir, shu sababli unda ishlash matematiklar uchun juda osondir.

Masalan: Kvadrat tenglamani ildizini topadigan formula biror bir dasturlash tilida $x = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4 \cdot a \cdot c}}{2 \cdot a}$ ko'rinishda yozilsa, MathCADda shu formula quyidagi ko'rinishda yoziladi. $x := \frac{-b + \sqrt{b^2 - 4 \cdot a \cdot c}}{2 \cdot a}$

YA'ni matematikada qanday yozilsa bu yerda ham xuddi shunday yoziladi. Mathcad yordamida formulalar faqatgina chiroyli yozilmasdan balki ixtiyoriy masalani sonli yoki belgili yechish imkoniyatiga ega. Mathcad o'zining yordamchi sistemasiga egadir. Har qanday tenglama atrofida ixtiyoriy matnni joylashtirish mumkin, bu esa hisoblash jarayonini izohlash uchun juda zarurdir.

Mathcad 2000 dasturini quyidagi uch xil varianti mavjud.

Mathcad 2000 Standart

Mathcad 2000 Professional

Mathcad 2000 Preium

Bu dasturlar yordamida nafaqat matematikaga doir masalalarni yechish mumkin balki bu dastur yordamida ilmiy maqolalar, tezislar, dissertatsiya ishlarini, diplom ishlarini, kurs ishlarini loyihalash mumkin chunki bu dastur yordamida matematik formulalarni, matnlarni, grafiklarni juda chiroyli qilib ifodalash mumkin,yana bu dastur yordamida yuqori darajada elektron darsliklar ham yaratish mumkin.

Mathcad dasturi 6 ta xarakterli interfeyslardan iborat.

- Sarlavha qatori – Bu qatorda hujjatning nomi va oynani boshqarish tugmalari joylashgan
- Menyu qatori – Bu qatorda har bir menyu qandaydir komandalardan tashkil topgan.
- Instrumentlar paneli – Belgili tugmalardan iborat bo‘lib, har bir belgili tugma qandaydir komandani bajaradi.
- Formatlash paneli -Belgili tugmalardan iborat bo‘lib, hujjatdagi belgilanganformula yoki matnni formatlashni tez amalgam oshiradi.
- Matematik belgilar paneli – Bu panel ham belgili tugmalardan iborat bo‘lib, har bir belgili tugma qandaydir matematik amalni bajaradi.
- Koordinatali chiziq.

Yuqorida keltirilgan uchta panelni har birinioynani ixtiyoriy joyida joylashtirish mumkin. Buning uchun har bir panelni ustida sichqonchani olib borib chap tugmasini bosib turib panelni oynani ixtiyoriy joyiga joylashtirish mumkin[3].

Maple kompyuterga o‘rnatilgandan so‘ng, uni standart 2 yo‘l bilan ishga tushirish mumkin: 1) Windows OT ning bosh menyusini orqali yoki 2) Ish stolida yaratilgan yorliq orqali. Biz Maple 9.5 versiya bilan ishlaymiz[4]. Maple oynasi Windows OT ning standart oynasiga o‘xshash bo‘lib, oynaning nomi satri, menyu satri, qurollar paneli, ishchi maydon, holat satri, lineyka va o‘g‘irish liftlaridan iborat:

Asosiy menyu punktlari:

File(Fayl) - fayllar bilan ishlaydigan standart buyruqlar, masalan, faylni saqlash, ochish, yangisini yaratish va hokazo, to‘plamidan iborat.

Edit(Pravka) - fayllarni tahrirlovchi standart buyruqlar, masalan, nusxalash, ajratilgan matn qismini buferga olish, buyruqni bekor qilish va hokazo, to‘plamidan iborat.

View (Vid) - oynani ko‘rinishini o‘zgartiruvchi standart buyruqlar to‘plamidan iborat.

Insert (Vstavka) - oynaga matnli, buyruqli maydonlar, grafiklarni qo‘yish uchun mo‘ljallangan buyruqlar to‘plamidan iborat.

Format (Format) - hujjatni bezash uchun ishlatiladigan buyruqlar to‘plamidan iborat.

Options (Parametri) - ma’lumotni ekranga kiritish va chiqarish bilan bog‘liq buyruqlar to‘plamidan iborat.

Windows (Okno) - bir ishchi oynadan ikkinchi ishchi oynaga o‘tish uchun mo‘ljallangan buyruqlar to‘plamidan iborat.

Help (Spravka) - Maple haqida batafsil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.


Maple da ishlash muloqat (sessiya) tarzida olib boriladi: foydalanuvchi Maple ga ekranda buyruq bilan murojaat qiladi, Maple uni qayta ishlab ekranda buyruqdan keyingi satrga javob qaytaradi (quyidagi rasmga qarang). Shunga asosan, ishchi maydon shartli ravishda uch qismga bo‘linadi:

1)Kiritish (buyruq) maydoni - buyruqlardan iborat. Buyruqlar>command(p1,p2,...); (yoki :) ko‘rinishga ega, qizil rangli, chapga tekislangan;


2)Chiqarish (javob) maydoni – Maplening kiritilgan buyruqqa javobidan iborat bo‘lib, analitik ifoda, sonli qiymat, to‘plam, grafik obyekt, xatolik haqidagi xabardan iborat bo‘lishi mumkin va ko‘k rangda. Javob buyruqdan keyingi satrga chiqariladi, markazga tekislangan bo‘ladi;

3)matn (komentariy) maydoni - foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan ixtiyoriy matndan iborat va u ma’lumotni qayta ishlashga ta’sir etmaydi, va uning mohiyatini tushuntirish uchun ishlatiladi va qora rangli.

Matn va buyruq maydoniga o‘tish asboblari panelidagi (yoki Insert (Vstavka) menyusidagi ularga mos buyruqlar orqali) tugmalarni bosish orqali bajariladi.



MATLAB sonli hisoblashlar, ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilishga mo'ljallangan yuqori bosqichli texnik hisoblashlarni amalga oshirishga mo'ljallangan interaktiv muhit hisoblanadi. MATLABdan foydalanib an'anaviy S, S⁺⁺, Fortran dasturlash tillaridan ko'ra tezroq texnikaviy hisoblash masalalarini yechish imkoniyati mavjud. Mazkur dastur kalkulyator singari sodda, universal instrument hisoblanadi. MATLAB dasturi nafaqat Microsoft Windows operatsion tizimida balki Unix, Linux, Macintosh operatsion tizimlarida ham ishlaydi. Shuni ta'kidlash joizki MATLAB Professional va MATLAB Student versiyalari o'rtasida farq juda katta emas. Microsoft Windows operatsion tizimida tizimni ishga tushirish uchun bosh menyu Pusk (Start) dan dasturni ishga tushiriladi. Bundan tashqari ish stolida dastur belgisi tushirilgan tugma bo'lishi ham mumkin. Unix, Linux tizimlarida matlab so'zini terib tizimni ishga tushiriladi [1]. Agar buyruqlar oynasi (Command Window) aktiv bo'lmasa, u holda uning ixtiyoriy joyiga sichqoncha ko'rsatkichini bosish lozim. Quyidagi rasmda MATLAB dasturining ish stoli misol sifatida ko'rsatilgan.



Ish oynasi aktiv bo'lgandan so'ng kursor ko'rsatkichi yonib o'chib turadi. Endi mana shu yerdan boshlab ifodalar kiritiladi. MATLAB tizimida onlayn ma'lumotnomasi bo'lib, biroq ushbu ma'lumotlar orqali haqiqiy mutaxassis bo'lish mumkin. Onlayn ma'lumotga ega bo'lishning bir necha usuli mavjud. Agar buyruqlar qatoriga help so'zini yozsangiz, ma'lumotnomaning uzun ro'yxati ekranda paydo bo'ladi. Misol sifatida help general so'zini kiriting. Bunda MATLAB asosiy buyruqlarining uzun ro'yxatini ko'rasiz. Endi factor buyrug'i bilan tanishish uchun help factor so'zini kiriting. Ekranda ko'rsatilgan ma'lumotlarni alohida oynada ko'rish mumkin. Navbatdagi oynaga o'tish uchun probel tugmasi bosiladi.

Ma'lumotnomaning 4- bo'limi Demos(Demo) bo'lib, o'ncha ko'p bo'lmagan namoyish qiluvchi misollar mavjud. Bular yordamida siz tizim bilan yanada chuqurroq tanishasiz. Biror elementga sichqoncha ko'rsatkichi bosilsa, mazkur element to'g'risida hujjatlar sahifada tasvirlanadi.

Tizimda buyruqlar oynasi va ma'lumotnomadan tashqari Buyruqlar tarixi (Command History), joriy papka (Current Directory) va ish sohasi (Workspace) kabi oynalar ham mavjud. Navbatdagi bo'limlarda uchraydigan bu va boshqa oynalar MATLAB da (M fayllar) kichik dasturlar yozish va fayllar va papkalarni boshqarish imkoniyatini beradi. MATLABda ishni yakunlash uchun buyruqlar qatoriga quit buyrug'i kiritiladi. Shuningdek oynaning yuqori o'ng tomonidagi **x** tugmani bosilsa ham bo'ladi. Yana bitta usul bu asosiy menyudan File⇒Exit MATLAB tanlanadi [1].

Nazorat savollar:

1. Ta'lim jarayonida AKTni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar, qabul qilingan qarorlar va dasturlar.
2. «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari» deganda nimani tushunasiz?
3. Amaliy dasturlar paketi.
4. Kompyuterli matematik tizimlar va ularning turlari.
5. AKT turlarini ajratib bering.
6. Matematik tizimlar yaratilish tarixi va imkoniyatlarini sanab chiqing.

Adabiyotlar.

1. V.A. Oxorzin Prikladnaya matematika v sisteme MATHCAD: Uchebnoye posobiye. –SPb.: “Lan”.2008.-352s.
2. V.P Dyakonov. Maple 9.5/10 v matematike, fizike i obrazovanii-M.:SOLON-Press. 2006.-720s.
3. V.P Dyakonov. Mathematica 5/6/7. Polnoye rukovodstvo. - M.: DMK Press, 2010. - 624 s.:

2-mavzu: Elementar matematika masalalarini amaliy dasturlar paketida yechish. Simvulli hisoblashlar.

Reja:

- 2.1. Matematik ifodalar va funksiyalar.
- 2.2. Algebra va sonlar nazariyasi masalalarini yechish.
- 2.3. Tenglamalar sistemasi va tenglamalarni yechish.
- 2.4. Matritsalar ustida amallar.

2.1. Matematik ifodalar va funksiyalar. Arifmetik amallar. Maple tizimining o'zgarmaslari, butun va ratsional sonlar.

Matematik o'zgarmlar va arifmetik amallar. Asosiy matematik o'zgarmlar: Pi – π soni; I – mavhum birlik i; infinity – cheksizlik; Gamma – Eyler o'zgarmsi; true, false – mantiqiy ifodalarning chin yoki yolg'onligini bildiruvchi mantiqiy o'zgarmlar. Arifmetik amallar belgilari:

+ - qo'shish; – - ayirish; * - ko'paytirish; / - bo'lish; ^ - darajaga ko'tarish; ! – faktorial. Taqqoslash belgilari: , >=, <=, <>, = Kompleks, butun va ratsional sonlar. Maple da sonlar haqiqiy (real) va kompleks (complex) sonlarga bo'linadi. Kompleks sonlar $z=x+iy$ algebraik ko'rinishda e'ziladi, buyruqlar satrida quyidagicha kiritiladi:

$$> z:=x+I*y;$$

Haqiqiy sonlar butun va ratsional sonlarga bo'linadi. Butun sonlar (integer) o'nlik sistemada e'ziladi. Ratsional sonlar uch xil ko'rinishda berilishi mumkin: 1) Ratsional kasr ko'rinishida, masalan: 28/70; 2) Suzuvchi vergul e'rdamida (float), masalan: 2.3; 3) Ko'rsatkichli shaklda, masalan: $1,602 \cdot 10^{-19}$ soni $1,602 \cdot 10^{-19}$ ni bildiradi. Ratsional sonning taqribiy qiymatini olish uchun sonlarning butun qismiga .0 qo'shib e'zish kerak.

Maple tizimida grek alfaviti harflarini poligrafik ko'rinishda e'zish mumkin. Buning uchun buyruqlar satrida harfning nomi kiritiladi. Masalan, α belgisini hosil qilish uchun alpha so'zini kiritish kerak. Grek alfaviti xarflari va ularning nomlari:

α - alpha	ν - nu
β - beta	μ - mu
γ - gamma	ξ -xi
δ - delta	π - pi
ε - epsilon	ρ - rho
ζ - zeta	σ - sigma
η - eta	υ - upsilon
θ - theta	ϕ - phi
ι - ita	χ - chi
κ - kappa	ψ - psi
λ - lambda	ω -omega

Komanda sintaksisi. Standart funksiyalar


Komanda sintaksisi. Maple tizimi komandasi buyruq nomi va parametrlaridan iborat: `command(p1, p2, ...)`. Har bir komanda (;) òki (:) bilan tugallanadi. Komanda (;) belgisi bilan tugasa komanda bajarilishining natijasi chiqarish maydonida hosil bo‘ladi, (:) belgisi bilan tugasa komanda bajariladi, lekin uning natijasi chiqarish maydonida hosil bo‘lmaydi. (%) belgisi oldingi komandaning natijasini bildiradi. (%) belgisidan foydalanishni quyidagi misolda ko‘ramiz:

```
> a+b; a+b
```

```
> %+c; a+b+c.
```

O‘zgaruvchiga qiymat ta’minlash uchun (:=) ta’minlash belgisi ishlatiladi.

Maple programmasi ishga tushirilganda uning barcha komandalari to'liqligicha xotirada yuklanmagan bo'ladi. Komandalarning ko'p qismi topish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi va chaqiruv jara'ida avtomatik ravishda ishga tushadi. Ayrim komandalar standart kutubxonalarda bo'ladi ularni bajarishdan avval albatta `readlib(command)` komandasini bajarish kerak, bu yerda `command` – chaqirilaётgan komanda nomi. Maple protseduralarining qolgan qismi paket deb ataluvchi maxsus kutubxonalarda saqlanadi. Paketlarni chaqirishning ikki xil usuli mavjud: 1) `with(package)` komandasi erdamida butun paketni chaqirish mumkin bu yerda `package` – paket nomi; 2) `package[command](options)`; maxsus formatdagi komanda orqali birinchi paket nomi `package`, kvadrat qavs ichida kerakli komanda `command`, va qavs ichida komandaning parametrlari `options` teriladi. Maple programmasi kutubxonalariga quyidagi paketlar kiradi: `linalg` – chiziqli algebra amallarini o'z ichiga oladi; `geometry` – planimetriya masalalarini yechish uchun; `geom3d` – stereometriya masalalarini yechish uchun; `student` – analitik ko'rinishda yechilgan masalalarni yechish bosqichlarini o'z ichiga oladi.



Maple da standart funksiyalarning ayrimlarini royxatini keltiramiz:

N	funksiya	Maple da	N	Funksiya	Maple da
1	e^x	exp(x)	12	Cosecx	cosec(x)
2	lnx	ln(x)	13	Arcsinx	arcsin(x)
3	lgx	lg10(x)	14	Arccosx	arccos(x)
4	$\log_a x$	log[a](x)	15	Arctgx	arctg(x)
5	\sqrt{x}	sqrt(x)	16	Arcctgx	arcctg(x)
6	x	abs(x)	17	Shx	sh(x)
7	sinx	sin(x)	18	Chx	ch(x)
8	cosx	cos(x)	19	Thx	th(x)
9	tgx	tg(x)	20	Cthx	cth(x)
10	ctgx	ctg(x)	21	$\delta(x)$ -Dirak funksiyasi	Dirac(x)
11	secx	sec(x)	22	$\theta(x)$ -Xevisayd funksiyasi	Heaviside(x)

Maple ga juda katta miqdorda maxsus funksiyalar ham kiritilgan. Ular Bessel, Eylerning beta-, gamma-funksiyalari, xatoliklar integrali, elliptik integrallar, har xil ortogonal ko'phadlar va hokazo. Eyler soni $ye=2.718281828\dots$ $\exp(x)$ orqali quyidagicha hisoblanadi: $\exp(1)$.

Sonning tub ko.,paytuvchilarga ajratish uchun Maple dasturida ifactor buyrug'i kiritiladi.

Masalan:

- 1) ifactor (54) Enter tugmasi bolsiladi va natija: 21 3
- 2) ifactor (620); Enter tugmasi bolsiladi va natija: (2)2 *(5)1 *(31)
- 3) ifactor (150); Enter tugmasi bolsiladi va natija: (2)*(3)*(5)2
- 4) ifactor (2000); Enter tugmasi bolsiladi va natija: (2)4 *(5)3 ;

Boʻlinmani hisoblash uchun Maple dasturida `iquo` buyrugʻi kiritiladi.

Masalan:

- 1) `iquo (54,6)` Enter tugmasi bolsiladi va natija: 9
- 2) `iquo (45,7)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: 6
- 3) `iquo (150,30)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: 5
- 4) `iquo (2000,150)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija:13

Qoldiqni hisoblash uchun Maple dasturida `irem` buyrugʻi kiritiladi.

Masalan:

- 1) `irem (54,6)` Enter tugmasi bolsiladi va natija: 0 (qoldiqsiz boʻlinadi)
- 2) `irem (45,7)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: qoldiq 3 ga teng
- 3) `irem (150,30)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: qoldiqsiz
- 4) `irem (22,15)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: qoldiq 7 ga teng

Berilgan sonning tub son ekanligini tekshirish uchun Maple dasturida `isprime` buyrugʻi kiritiladi.

Masalan:

- 1) `isprime (5)` Enter tugmasi bolsiladi va natija: true (tub son)
- 2) `isprime (45)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: false (murakkab son)
- 3) `isprime (1359)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: false (murakkab son)
- 4) `isprime (2203)`; Enter tugmasi bolsiladi va natija: true (tub son)

2.2. Chiziqli algebra masalalarini yechish buyruqlari.

Chiziqli algebra masalalarini yechish buyruqlari **LinearAlgebra** hamda **VectorCalculus** paketlarida, shuningdek **linalg** (Maple ning avvalgi versiyalarida mavjud edi) saqlanadi. Mazkur paketlarda asosiy buyruqlar toʻplami oʻxshash, mos buyruqlar oʻrtasidagi farq ularning sintaksisidadir.

Maple ning zamonaviy versiyalarida **linalg** paketi eskirgan hisoblanadi, **LinearAlgebra** va **VectorCalculus** paketlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Maple paketining ishlash natijalari Worksheet Mode interfeys rejimida Text Mode (1D-Math) va Math Mode (2D-Math) kiritish rejimida keltiriladi.

Matritsa va vektorlar ustida misollar yechishdan avval qiziqtirgan paketni **with(LinearAlgebra)** buyruq orqali yuklash lozim.

Vektorlarni berish usullari.

LinearAlgebra paketi buyruqlari orqali Maple da vektorni ikki xil usul yordamida berish mumkin:

1) Burchakli qavslar yordamida

a) Vektor-ustunni berish uchun bir-biridan vergul orqali ajratilgan ifodalar ketma-ketligidan foydalaniladi.

> <1,2,3>

$$\begin{bmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{bmatrix}$$

b) Satr-vektorni berish uchun ifodalar bir-biridan vertikal chiziq orqali ajratiladi.

><1|2|3>

$$[1 \ 2 \ 3]$$

2) **Vector([x1,x2,...,xn])** konstruktor-buyrug‘i yordamida, bu yerda kvadrat qavslarda vergul orqali vektor koordinatalari ko‘rsatiladi. Masalan:

Vektor-ustun

> **v1 := Vector([1, 2, 3]);**

$$v1 := \begin{bmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{bmatrix}$$

Vektor elementlarini funksiya orqali berish

> $f := j \rightarrow x^j$

(3,f)

$$\begin{bmatrix} x \\ x^2 \\ x^3 \end{bmatrix}$$

Indeks funksiyadan foydalanish

>(3, [2,100])

$$\begin{bmatrix} 0 \\ 100 \\ 0 \end{bmatrix}$$

v vektor koordinatasini $v[i]$ buyruq kiritilganda chiqarish satrida hosil qilish mumkin, bu yerda i koordinata raqami. Masalan avvalgi misolda berilgan vektor koordinatasini quyidagicha chiqarish mumkin:

> $v[1];$

Manfiy butun son koordinata raqami sifatida vektor ohiridagi koordinata raqamiga ishora qiladi.

➤ $a := \langle 85.3, 47.1, 59.9, 38.1 \rangle$

$$a := \begin{bmatrix} 85.3 \\ 47.1 \\ 59.9 \\ 38.1 \end{bmatrix}$$

Vektorlarni qo'shish.

⟨⟩ burchak qavslar yoki **Vector** buyrug‘i yordamida berilgan vektorlarni qo‘shish oddiy + qo‘shish amali orqali amalga oshiriladi .

a va b vektorni **ikkita usulda qo‘shish mumkin:**

1) **evalm(a+b);**

2) **matadd(a,b).**

matadd buyrug‘i a va b vektorlarning chiziqli kombinatsiyasini hisoblashga imkon beradi:

bu yerda a, b skalyar kattaliklar

: **matadd(a,b,alpha,beta).**

Vektorlarning skalyar, vektor ko‘paytmasi, vektorlar orasidagi burchak.

n -o‘lchovli fazoda ikkita vektorning skalyar ko‘paytmasi

$a \cdot b$ yoki LinearAlgebra paketining **DotProduct(a,b)** buyrug‘i yordamida hisoblanadi.

Uch o‘lchovli vazoda ikkita vektorning ko‘paytmasi **CrossProduct(a,b)** buyrug‘i yordamida hisoblanadi.

a va b vektorlar orasidagi burchak **VectorAngle(a,b)** buyrug‘i orqali hisoblanadi.

Vektor normasi.

Norm(A, p, c) – Matritsa yoki vektorning p -normasi.

2, Euclidean yoki **Frobenius** – Yevklid normasi **infinity** – modul bo‘yicha maksimal element

Matritsalar algebrasi

Amal nomi	Matematik amal	Komanda ko‘rinishi
Matritsani aniqlash	$A = [a_{ij}]$	>A:= matrix(n, m, [[a11,a12,...,a1n], [a21,a22,...,a2m],..., [an1,an2,...,anm]])
Diognal matritsani aniqlash	$J = \begin{bmatrix} a1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & a2 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & a3 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & a4 \end{bmatrix}$	>J:=diag(a1,a2,a3,a4)
Matritsani generatsiya qilish	$A = [a_{ij}], a_{ij} = f(i, j)$	>f:=(I,j)->x^i*y^j: >A:=matrix(n,m,f)
Satrlar soni	m	>rowdim(a);
Ustunlar soni	n	>coldim(A):
Matritsalarini qo‘shish	$A+B$ $\alpha A + \beta B$	evalm(A+B); matadd(A,B,alpha,beta).
Matritsalarini ko‘paytirish	$C=AB$	evalm(A&*B); multiply(A,B);
Determinant	$ A $	>det(A);
Matritsaning izi	$\sum a_{ii}$	>trace(A);
Matritsaning minori	A dan i-satr, j-ustun ni o‘chirish	>minor(A,i,j);
Teskari matritsa	$A * B = E, B * A = E$	>evalm(1/A)

		>inverse(A); >evalm(A^(-1));
Transpozitsiyalash	A^T	>transpose(A);
Matritsaning xossalarini aniqlash	$A > 0$ $A \geq 0$ $A < 0$ $A \leq 0$	>definite(A,param) param:= 'positive_def', 'positive_semidef', 'negative_def', 'negative_semidef'
Matritsaning ortogonalligini aniqlash	$A * A^T = E, A^T * A = E$	>orthog(A);
Matritsaning darajasi	A^n	>evalm(A^n);
Matritsaning eksponentasi	e^A	>exponential(A);

Misollar.1.

$$> A := \text{matrix}([[1,2,3],[-3,-2,-1]]); \quad \backslash\! \backslash A := \begin{bmatrix} 1 & 2 & 3 \\ -3 & -2 & -1 \end{bmatrix}$$

$$2.> J := \text{diag}(1,2,3); \quad \backslash\! \backslash J := \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 2 & 0 \\ 0 & 0 & 3 \end{bmatrix}$$

$$1. > f := (i, j) \rightarrow x^i y^j; \quad \backslash\! \backslash f := (i, j) \rightarrow x^i y^j$$

$$> A := \text{matrix}(2,3,f); \quad \backslash\! \backslash A := \begin{bmatrix} xy & xy^2 & xy^3 \\ x^2y & x^2y^2 & x^2y^3 \end{bmatrix}$$

4. > A:=matrix([[1,0],[0,-1]]):

> B:=matrix([[-5,1],[7,4]]); \\A:= $\begin{bmatrix} 1 & 0 \\ 0 & -1 \end{bmatrix}$, B:= $\begin{bmatrix} -5 & 1 \\ 7 & 4 \end{bmatrix}$

> v:=vector([2,4]); \\v:= $\begin{bmatrix} 2 & 4 \end{bmatrix}$

> multiply(A,v); \\ $\begin{bmatrix} 2 & -4 \end{bmatrix}$

> multiply(A,B); \\ $\begin{bmatrix} -5 & 1 \\ -7 & -4 \end{bmatrix}$

> matadd(A,B); \\ $\begin{bmatrix} -4 & 1 \\ 7 & 3 \end{bmatrix}$

> S:=matrix([[1,1],[2,3]]):

> evalm(2+3*S); \\ $\begin{bmatrix} 5 & 3 \\ 6 & 11 \end{bmatrix}$

5.> A:=matrix([[4,0,5],[0,1,-6],[3,0,4]]); \\A:= $\begin{bmatrix} 4 & 0 & 5 \\ 0 & 1 & -6 \\ 3 & 0 & 4 \end{bmatrix}$

> det(A); \\1

> minor(A,3,2); \\ $\begin{bmatrix} 4 & 5 \\ 0 & -6 \end{bmatrix}$

> det(%); \\-24

> trace(A); \\-9

6. > A:=matrix([[4,0,5],[0,1,-6],[3,0,4]]); \\A:= $\begin{bmatrix} 4 & 0 & 5 \\ 0 & 1 & -6 \\ 3 & 0 & 4 \end{bmatrix}$

> inverse(A); \\ $\begin{bmatrix} 4 & 0 & -5 \\ -18 & 1 & 24 \\ -3 & 0 & 4 \end{bmatrix}$

$$> \text{multiply}(A, \%); \quad \|\| \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

$$> \text{transpose}(A); \quad \|\| \begin{bmatrix} 4 & 0 & 3 \\ 0 & 1 & 0 \\ 5 & -6 & 4 \end{bmatrix}$$

$$1. > A := \text{matrix}([[2,1],[1,3]]); \quad \|\| A := \begin{bmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 3 \end{bmatrix}$$

$$> \text{definite}(A, 'positive_def'); \quad \|\| \text{true}$$

$$> V := \text{matrix}([[1/2, 1*\sqrt{3}/2], [1*\sqrt{3}/2, -1/2]]); \quad \|\| B := \begin{bmatrix} 1/2 & \sqrt{3}/2 \\ \sqrt{3}/2 & -1/2 \end{bmatrix}$$

$$> \text{orthog}(V); \quad \|\| \text{true}$$

$$2. > T := \text{matrix}([[5*a, 2*b], [-2*b, 5*a]]); \quad \|\| T := \begin{bmatrix} 5a & 2b \\ -2b & 5a \end{bmatrix}$$

$$> \text{exponential}(T); \quad \|\| \begin{bmatrix} e^{(5a)} \cos(2b) & e^{(5a)} \sin(2b) \\ -e^{(5a)} \sin(2b) & e^{(5a)} \cos(2b) \end{bmatrix}$$

$$> \text{evalm}(T^2); \quad \|\| \begin{bmatrix} 25a^2 - 4b^2 & 20ab \\ -20ab & 25a^2 - 4b^2 \end{bmatrix}$$

2.3. Maple da ayrim chiziqli algebra masalalarini yechishga oid misollar

Maple dasturida oddiy tenglamalarni yechish. Maple muhitida tenglamalarni yechish uchun universal buyruq $\text{solve}(t,x)$ mavjud, bu yerda t – tenglama, x – tenglamadagi nomaʼlum oʻzgaruvchi. Bu buyruqning bajarilishi natijasida chiqarish satrida ifoda paydo boʻladi, bu ana shu tenglamaning yechimi hisoblanadi. Masalan:

> **solve(a*x+b=c,x);**

$$-\frac{b-c}{a}$$

Agar tenglama bir nechta yechimga ega bo'lsa va undan keyingi hisoblashlarda foydalanish kerak bo'lsa, u holda **solve** buyrug'iga biror-bir nom **name** beriladi.. Tenglamaning qaysi yechimiga murojoat qilish kerak bo'lsa, uning nomi va kvadrat qavs ichida esa yechim nomeri yoziladi: **name[k]**.

Masalan:

> **x:=solve(x^2-a=0,x);**

$$x := \sqrt{a}, -\sqrt{a}$$

> **x[1];**

$$\sqrt{a}$$

> **x[2];**

$$-\sqrt{a}$$

Tenglamalar sistemasi ushbu komandalar

`solve({eq1, eq2,...},{x1, x2,...}), fsolve({eq1, eq2,...},{x1, x2,...})`

bilan yechiladi, bu yerda birinchi figurali qavslarda tenglamalar ro'yxati, ikkinchi figurali qavslarda o'zgaruvchilar ro'yxati berilgan. Agar keyinchalik, yechimlar ustida biror amallar bajarish kerak bo'lsa `solve` komandasiga biror nom `name` berish kerak, so'ng nomni qabul qilish uchun `assign(name)` komandasini berish kerak. Shundan so'ng yechimlar ustida ixtiëriy mumkin bo'lgan amallarni bajarish mumkin.

Tenglamalar sistemasini yechish. Tenglamalar sistemasi ham xuddi shunday `solve({t1,t2,...},{x1,x2,...})` buyrug'i yordami bilan yechiladi, faqat endi buyruq parametri sifatida birinchi figurali qavsda bir- biri bilan vergul bilan ajratilgan tenglamalar, ikkinchi figurali qavsda esa noma'lum o'zgaruvchilar ketma-ketligi yoziladi.

Masalan:

1)Tenglamalar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} x - y = 1 \\ x + y = 3 \end{cases}$$

```
>eq:={x-y=1,x+y=3};
```

```
eq := {x - y = 1, x + y = 3}
```

```
> s:=solve(eq, {x,y});
```

Enter tugmasini bosib natija:

```
s := {y = 1, x = 2}.
```

Quyidagi misollarda tenglamalar sistemasini grafik usulda yechimini topish ko'rsatilgan. Bu grafik chizish operatorlari:


```
plot(p,x=-4..4,labels=[x,y],labelfont=[TIMES,ITALIC,12]);
```

```
with(plots):implicitplot(e,x=-10..10,y=-10..10);
```

Misol. 1.1. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish.

```
> s1:={2*x+y=6,x+2*y=6}:solve(s1,{x,y}); \\{y=2,x=2}
```


```
> with(plots):implicitplot(s1,x=-10..10,y=-10..10);
```



Misol 1.2. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish.

```
> s1 := {z=3, x-z=0, x+y+2*z=12}: solve(s1, {x,y,z}); \\ {z=3, x=3, y=3}
```

```
> display(implicitplot3d(s1, x=-10..10, y=-10..10, z=-10..10));
```




Misol 1.3. $f(x) = \exp(x) - 10x - 2 = 0$ tenglamani yechish.


```
> fsolve( exp(x)-10*x-2,x );
```


-0.1104575676

```
> plot({ exp(x),10*x+2},x=-4..4,y=-4..4,colour=[green,red]);
```



Tenglamalarni interaktiv usulda yechish





Bu yerda $f(x)=0$ tenglama Nyuton usuli bilan yechilmoqda. Nyuton usulida yechim ushbu iteratsiyalar èrdamida hisoblanadi [30]:

$$\xi = \lim_{k \rightarrow \infty} x^k, \quad x^{k+1} = x^k - \frac{f(x^k)}{f'(x^k)}, \quad |\xi - x^k| < \frac{1}{q} \left\{ q |\xi - x^{\sigma}|^{2^k} \right\}^k, \quad f(x^0) f''(x^0) > 0$$

Matematik paketlar yordamida algebraik va transsendent tenglamalarni sonli yechish

Faraz qilaylik $f(x) = 0$ tenglamani yechish talab etilsin. Bunday tenglamaning ildizini taqribiy topish odatda ikki qismdan iborat bo‘ladi.

- 1) ildizlarni ajratish;
- 2) ildizlarni berilgan aniqlikda hisoblash.

Matematik analizdan ma’lum bo‘lgan quyidagi teoremlar (1) tenglamaning ildizlari yotgan oralikni aniqlashga va ajratishga yordam beradi.

Teorema1. Agar $f(x)$ funksiya biror $[a,b]$ oraliqning chetki nuqtalarida har xil ishorali qiymatlarni qabul qilsa, u vaqtda bu oraliqda (1) ning hech bo‘lmaganda bitta ildizi mavjuddir. Shuning bilan $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqda ishora saqlasa, bu ildiz yagonadir.

Teorema2. $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqda analitik funksiya bo‘lsin. Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ oraliqning uchlarida turli ishorali qiymatlar qabul qilsa, u holda $f(x)$ ning a va b nuqtalar orasida yotgan ildizlari toqdir. Agar oraliqning uchlarida bir xil ishoraga ega bo‘lsa, ildizlari yo‘q yoki ularning soni juftdir.

